

DÇDĐ  
ĐĂĈĐĂ



ISSN 2181-2551  
E-ISSN 2181-2561

**IQTISODIYOT VA TURIZM**  
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

**ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ**  
международный научно-  
инновационный журнал

**ECONOMICS AND TOURISM**  
international scientific and  
innovative journal

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001

технологий. Учитывающие современные тенденции развития на рынке гостиничных услуг обеспечат жизнеспособность своей гостиницы в жёсткой конкурентной среде.

В ближайшее время в Узбекистане самыми востребованными будут отели классов стандарт и комфорт, рассчитанные на постояльцев со средним уровнем дохода, а также следующие типы средств размещения: отели-пансионаты; отели с медицинскими услугами; гостиницы с конференц залами; апарт-отели; хостелы.

#### Список использованной литературы

1. Кабушкин Н.И., Бондаренко Г.А. Менеджмент гостиниц и ресторанов. – Минск: Новое издание, 2002. – 368 с.
2. Ляпина И.Ю. Организация и технология гостиничного обслуживания. – М.: «Академия», 2005. – 208 с.
3. Шматько Л.П. Туризм и гостиничное хозяйство. – М.: Март, 2005. – 346 с.
4. Анализ рынка гостиничных услуг в России в 2010-2014 гг., прогноз на 2015-2019 гг. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://businessstat.ru>.
5. Бодров А.В. Повышение эффективности системы управления инвестициями в гостиничном и туристском комплексе Москвы // Российское предпринимательство. – 2012. – №7, вып.1(114). – С.155-159.
6. Гаврильчак И.Н., Шарафанова Е.Е., Терентьева Ю.Г. Некоторые проблемы развития гостиничного хозяйства Санкт-Петербурга // Российское предпринимательство. – 2011. – №12 (84). – С.97-100.
7. Федоров Р.Г., Кошелева Е.А. О развитии гостиничных услуг в регионах с низкой туристской привлекательностью // Российское предпринимательство. – 2013. – №6 (228). – С.127-132.
8. Забержинский Б.Э., Карева Н.В. Внедрение Гостиничная индустрия: ее роль в развитии экономики, основные проблемы и пути их решения // Экономика, предпринимательство и право. — 2016. — 6(1). — с. 99-110. — doi: 10.18334/epp.6.1.35242
9. Non-equity modes of international production and development [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.unctad-docs.org/files/UNCTAD-WIR2012-Chapter-IVen.pdf>.
10. Onofre Cunill The Growth Strategies of Hotel Chains: Best Business Practices by Leading Companies [Электронный ресурс] / Onofre Martorell Cunill. – Режим доступа: <https://books.google.com.ua/books?id=0zPWtOIfi9IC&printsec=frontcover&dq=inauth>

UOʻK: 908

*Yuldosheva Bibirajab*

Buxoro davlat universiteti dotsenti

*Hamidov Gʻolib*

Buxoro davlat universiteti talabasi

## OʻRTA OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY TARIXIY GEOGRAFIYASI

### ANNOTATSIYA.

Maqolada Oʻrta Osiyoda mavjud boʻlgan uch xonlik Buxoro, Xiva hamda Qoʻqon xonliklarining siyosiy tarixiy geografiyasi bilan birga, iqtisodiy geografiyasi haqida ham soʻz boradi. Bu davrda Buxoro va Xiva xonligida Shayboniylar, Qoʻqon xonligida Minglar oʻz davlatlariga asos solishgan. Keyinchalik bu sulolalar ichki ziddiyatlar va sulolaviy nizolar tufayli barham topgan va oʻrniga boshqa sulola vakillari (Buxoroda ashtarxoniyalar, 1601-1756 yy; Xivada qoʻngʻirotlar, 1804-1920 yy) kelishgan. Asrlar davomida bir butun boʻlib kelgan mamalakatning, bir iqtisodiy va maʼnaviy-madaniy makonda yashab kelgan oʻzbek xalqlarining uch davlatga boʻlinib ketishi, ular oʻrtasida davom etgan qarama-qarshiliklar, oʻzaro urushlar mamlakatning umumbashariy taraqqiyot jarayonidan uzilib qolishiga olib keldi. Suningdek, mazkur maqolada Oʻrta Osiyo xonliklarining siyosiy tarixi va iqtisodiyoti haqida ham soʻz boradi.

**KALIT SOʻZLAR:** Oʻrta Osiyo, xonlik, urugʻ, «Великая Бухара», feodal, inoq, Buxoro, Samarqand, beklik, Qorapul, Abdullaxon II, Muhammad Raximxon II, Pekin shartnomasi, kapital.

**ABSTRACT:** The article deals with the economic geography of the three khanates in Central Asia, the Bukhara Khanate, the Khiva Khanate, and the Kokan Khanate. Shaybonias in Bukhara (1533-1539 during Ubaydullah Khan's reign) Elbarskhan 1511-1516) Mings (Shokhrukhbi 1709-1721) founded their own state during the Kokan khanate. Later, these dynasties ended due to internal conflicts and dynastic disputes and were replaced by representatives of other dynasties (Ashtarkhanids in Bukhara 1601-1756, in Khiva `ngirots 1804-1920) came. The division of the Uzbek peoples, who lived in the same economic, spiritual and cultural space, into three countries, and the continued contradictions between them internecine wars condemned the country to be cut off from the universal development process and to lag behind in development. So, the article talks about the political history of Central Asian khanates together with historical geography and economy.

**KEY WORDS:** Central Asia, Khanate, Urug, "Great Bukhara", feudal, Inoq, Bukhara, Samarkand, Bek people, "Black money" Abdullah Khan II, Muhammad Rahim Khan II, "Beijing Treaty" capital.

**АННОТАЦИЯ:** В статье рассматривается экономическая география трех ханств в Центральной Азии: Бухарского ханства, Хивинского ханства и Коканского ханства. Шайбония в Бухаре (1533-1539 годы правления Ubaydullay-xana), Эльбарсхан 1511-1516 гг.), Мины (Шохрухби 1709-1721 гг.) основали собственное государство во времена Коканского ханства. Эти династии прекратили свое существование из-за внутренних распрей и династических споров и на смену им пришли представители других династий (Аштарханиды в Бухаре 1601-1756, в Хиве Конгиротцы 1804-1920). Наступило разделение узбекских народов, живших в одной и той же экономическом, духовном и культурном пространстве на три страны, а продолжающиеся противоречия между ними и междоусобные войны обрекли страну на оторванность от всеобщего процесса развития и на отставание в развитии. Итак, в статье говорится о политической истории среднеазиатских ханств вместе с исторической географией и экономикой.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Средняя Азия, Ханство, уруг, «Великая Бухара», феодализм, инок, Бухара, Самарканд, бек, «Чёрные деньги» Абдулла-хан II, Мухаммад Рахим-хан II, столица «Пекинского договора».

### **KIRISH**

Markaziy Osiyo mintaqasida ya'ni, g'arbda Kaspiy dengizidan sharqda Xitoy hududiga qadar cho'zilgan hududlarda vujudga kelgan xonliklar sifatida Buxoro, Xiva hamda Qo'qon xonliklari nafaqat mazkur chegara hududidagi mintaqalarda, balki butun Osiyoda dong'ini taratgan yirik saltanatlar desak adashmagan bo'lamiz. Chunki bu ulkan geografik mintaqada o'z hokimiyatini o'rnatib faol iqtisodiy siyosat olib borgan mazkur xonliklar Shimoliy Osiyo hududlaridan (Chor Rossiyasi, qozoq Juzlari v.b)ni Janubiy Osiyo mintaqalari hisoblangan (Eron, Afg'oniston hamda Hind o'lkasini) iqtisodiy hayot uyg'unligi bilan ta'minlab turgan eng muhim geografik hudud hisoblangan. Bu davrda (XVI-XVIII asr) Buxoro xonligi bevosita Xitoy, Rossiya, Dehli sultonligi kabi yirik davlatlar bilan faol iqtisodiy-madaniy aloqalar olib borgan. Buxoro xonligining nufuzi shu darajada yuqori bo'lganini tarixiy manbalardan ham bilishimiz mumkinki, rus podshohlari tomonidan «Великая Бухара», deb nom berishgan. Bundan tahqari Xiva xonligi va Qo'qon xonligi ham tashqi siyosatda faol harakatlar olib borgan. Qo'qon xonligi hukmdorlari ham saltanatning qulay geografik hududidan kelib chiqib sharqda, Xitoy imperatorlari bilan tashqi savdoni yaxshilash maqsadida bir qancha manfaatli iqtisodiy shartnomalarni imzoladilar. Bunda Qo'qon xonlarining adolatli tashqi siyosati tufayli qo'qonlik savdogarlarga o'z mahsulotlarini tashqi bozorga erkin sotishga imkoniyat yaratilgan. Ushbu shartnoma natijasida O'rta Osiyo savdogarlarining tashqi savdo bojini yig'ib olish huquqi aynan Qo'qon xonlariga tegishli bo'lgan. Bundan bilishimiz mumkinki, O'rta Osiyo xonliklari tashqi aloqalarga alohida e'tibor berganlar.

### **METODLAR**

Maqola tarixiy metodlar tarixiy-qiyosiy, mantiqiy-tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyilari asosida yoritilgan bo'lib, xonliklarning tarixiy geografiyasi shuningdek, davr nuqtai nazaridan kelib chiqib o'rnatilgan boshqaruv, yer egaligi munosabatlari, iqtisodiyot, tashqi siyosat, siyosiy parokandalik hamda ijtimoiy hayot haqida qisqacha bayon etilgan.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Temuriylar sulolasi hukmronligi nihoyasiga yetishi bilan O'rta Osiyo hududlari (Movorounahr va Xuroson)da yangi davlatlar paydo bo'ldi. Bularan biri Buxoro xonligi (1533-1756) hisoblanadi. Bu davlatni shayboniylar sulolasiga mansub shaxslar boshqardi. Shayboniylar sulolasi asoschisi Muhammad Shayboniyxon 1500-1510 yillarda hukmronlik qildi. Mamlakat o'gillari tomonidan boshqarildi hamda ma'muriy markaz sifatida Samarqand shahri belgilandi, chunki Samarqand temuriylar davrida poytaxt vazifasini bajargan. Ubaydulloxon davrida 1533-yilda Buxoro shahri davlat poytaxtiga aylantirildi. Ubaydulloxon Buxoro shahriga ota-meros hudud deb qarar edi.

Shayboniyxon hayotligi davrida Buxoro shahri hokimligini ukasi Mahmud sultonga bergan edi. Ubaydulloxon ham o'z otasi boshqargan hududni boshqarishga harakat qilgan. Buxoro ma'muriy markaz sifatida boshqarildi va Buxoro xonligi deb atala boshlandi. XVIII asrning so'nggi chorgidan boshlab amirlik sifatida davlat hududlari birmuncha kengaytirilgan, biroq XIX asrning ikkinchi yarmidan so'ng davlat hududi Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni Pomirdan to Xivaning keng dashtlarigacha cho'zilib boradi.

Shayboniylardan keyin Buxoro taxtini egallagan sulola — ashtarxoniylar (kelib chiqishi Astraxandan bo'lganligi uchun) yoki joniylar (sulola asoschisi Jonibek sulton nomidan olingan) hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr hisoblanadi. Oliy hokimiyatni 150 yildan ortiqroq (1601-1756 yillar) davr mobaynida o'z qo'llarida saqlab kelgan ashtarxoniylar davrida markaziy davlat hokimiyati juda zaiflashdi, o'zaro urushlar nihoyatda avj oldi. Abdullaxon II ning sa'y-harakati bilan barpo etilgan ulkan Buxoro xonligi hududi qisqarib ketdi. Markaziy hokimiyat mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilolmaganligi, hududiy yaxlitlikni ta'minlay



olmaganligi sababli XVII asr boshlaridayoq Xurosonning katta qismi qo'ldan boy berildi. Xorazmda mustaqil Xiva xonligi barpo etildi. XVIII asr boshiga kelib esa xonlikning shimoliy chegaralarida Qo'qon xonligiga asos solindi.

Shayboniylardan keyin Buxoro taxtini egallagan sulola — ashtarxoniylar (kelib chiqishi Astraxandan bo'lganligi uchun) yoki joniylar (sulola asoschisi Jonibek sulton nomidan olingan) hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr hisoblanadi. Oliy hokimiyatni 150 yildan ortiqroq (1601-1756 yillar) davr mobaynida o'z qo'llarida saqlab kelgan ashtarxoniylar davrida markaziy davlat hokimiyati juda zaiflashdi, o'zaro urushlar nihoyatda avj oldi. Abdullaxon II ning sa'y-harakati bilan barpo etilgan ulkan Buxoro xonligi hududi qisqarib ketdi. Markaziy hokimiyat mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilolmaganligi, hududiy yaxlitlikni ta'minlay olmaganligi sababli XVII asr boshlaridayoq Xurosonning katta qismi qo'ldan boy berildi. Xorazmda mustaqil Xiva xonligi barpo etildi. XVIII asr boshiga kelib esa xonlikning shimoliy chegaralarida Qo'qon xonligiga asos solindi [7].

Ashtarxoniylar davlati tizimi o'z tuzilishi, mohiyatiga ko'ra shayboniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmas edi. Xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinardi. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy qilinardi, uning nomidan tangalar zarb qilinardi, xonning nomi xutbada qo'shib o'qilar edi. Lekin amalda ko'pgina ashtarxoniy hukmdorlar yirik saroy amaldorlari qo'lida to'plangan bo'lsa, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo'lib, davlat tizimining beqarorligiga, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarga olib kelardi.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi hududi keskin qisqarib, XVII asr boshlariga tegishli manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat - Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va G'uzor viloyatlari tilga olinadi, xolos. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Bak viloyatlari qayta bo'ysundirilgan bo'lsada, Xurosondagi bir necha yirik viloyatlar (Hirot va boshqa hududlar) va Xoiazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqdi. Xonlikka bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'pgina viloyatlar, xususan Hisor, Shahrisabz amalda yarim mustaqil boshqarilib, Buxoroga nomigagina tobe hisoblanardi. Viloyatlar xuddi shayboniylar davridagidek tumanlarga va boshqa ma'muriy birliklarga bo'lingan [9].

Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi hududi keskin qisqarib, XVII asr boshlariga tegishli manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi oltita viloyat - Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va G'uzor viloyatlari tilga olinadi, xolos. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Bak viloyatlari qayta bo'ysundirilgan bo'lsa-da, Xurosondagi bir necha yirik viloyatlar (Hirot va boshqa hududlar) va Xoiazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqdi. Xonlikka bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'pgina viloyatlar, xususan Hisor, Shahrisabz amalda yarim mustaqil boshqarilib, Buxoroga nomigagina tobe hisoblanardi. Viloyatlar xuddi shayboniylar davridagidek tumanlarga va boshqa ma'muriy birliklarga bo'lingan.

Buxoro amirligi XIX asrning 2-yarmi va XX asrning boshlarida shimol tarafdan Qizilqum sahrosi bilan, g'arb tarafdan Sirdaryo hamda Qo'qon xonligi bilan, janubda esa Afg'oniston, sharqdan turkman o'lkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh bo'lgan. Bu davrda amirlik hududini 225 000 km. kv. ekanligi manbalarda yozib qoldirilgan. Shuningdek bu davrda Buxoro amirligi tarkibiga 28 ta beklilik kirgan bo'lib, ular quyidagilardir: Chorjuy, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Qorategin, Denov, Hisor, Darvoza, Baljuvon, Sho'g'onon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Kabadiyon, SHERobod, Kalif, Qaroqli, Qarshi, Xorazm va boshqalar. Har bir beklilikni amir tomonidan tayinlab qo'yilgan xokimlar-beklar idora qilgan.

Xorazm hududida 1512-yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Shayboniy urug'idan bo'lgan Elbarsxon (1512-1525-yy) asos soldi. Elbarsxon vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. O'zaro urushlar va hukmdorlarning tez-tez almashib turishi natijasida bu davrda Xorazm hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan edi. Xonlikning poytaxti dastlab Vazir,

keyinchalik Urganch va Xiva bo'lgan [1]. XIX asrga kelib davlat hokimiyatining mustahkamlanishi bilan xonlik hududi ham kengayib borgan. Eltuzarxon (1804-1806 yy) davrida uning hududi unchalik katta bo'lmay, shimoliy chegarasi Orol-Qo'ng'irot hokimligi va janubi esa Darg'on bilan chegaralamgan. 1840-yillarda xonlik hududi ancha kengayib, g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha, janubiy esa Eronga tutash bo'lgan.

1858-yili Xivaga safar qilgan rus elchisi Ignatyev Xiva xonligining janubiy chegarasi Marv vodiysi orqali o'tganligi, shimolda esa Embya (Ural) daryosigacha tutashganligi haqida ma'lumot beradi. Buxoro va Xiva xonligini chegaralarini Qizilqum sahrosi ajratib turgan.

Xiva xonligida yashagan aholi soni haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, xonlikda taxminan 800 mingga yaqin aholi yashagan. 1819-yil Xiva xonligiga kelgan rus sayyohi bergan ma'lumotlarga qaraganda 300 mingga yaqin kishi yashagan. G.I. Danilevskiy ham uning ma'lumotini tasdiqlaydi. 1873-yil xonlik poytaxtiga kelgan rus sharqshunosi A.L. Kun xonlik aholisi 700 ming kishi ekanligini yozib qoldirgan. O'zbeklarning qo'ng'irot, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq qabilalari ko'pchilikni tashkil qilgan. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanal bo'ylarida joylashishgan. Shuningdek, aholining chorak qismini turkmanlar tashkil etgan. Bu turkman qabilalari qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forsiy va turkiy qabilalari bilan qorishib ketgan.

XIX asrlarda Xiva xonligi kuchli markazlashgan davlat edi. Bu savdo va hunarmandchilikning rivojlanishiga keng yo'l ochib beradi. Xiva, Xozarasp, Xonqa, Urganch, Qo'ng'irot, Ko'hna Urganch, Sho'rxon kabi shaharlarda savdo va hunarmandchilik har jihatdan rivojlanadi. Bu shaharlarda 2 mingdan 5 minggaacha aholi istiqomat qilgan. Poytaxt Xiva shahrida 12 ming aholi yashab kelgan. Har bir shahar atrofi baland va mudofaa qo'rg'onlari bilan o'rab olingan. Xiva xonligi ma'muriy jihatdan Xozarasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna-Urganch, Qo'shkupir, Pitnak, G'azavot, Qiyot, Shohaboz, Shavot, Toshhovuz, Ambor-manoq, Urganch, Xo'jayli, To'manoy, Qo'ng'irot kabi beklik va noibliklarga bo'lingan. Bek va noiblar huzurida, ularga xizmat qiluvchi amaldorlar bo'lgan.

XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining hududi 19 ming kvadrat milni tashkil etgan. Xonlik janubda Eron bilan, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz, cheksiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini hududiy jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Quyi Amudaryo bo'yi Xiva xonligining markaziy qismini tashkil etardi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Qiyot, Ko'na Urganch, Xozarasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar (Xozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari edi.

Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli XVIII asr boshlarida ikkiga bo'linib ketdi. Ashtarxoniyalar xukmronligining zaiflashuvi oqibatida Farg'ona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jungarlar davlati tez-tez bostirib kiradigan, talon-taroj qiladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyat Farg'onadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi. Farg'ona vodiysining hududiy yaxlitligi va iqtisodiy imkoniyatlari, uning Buxoro xonligidan ajralib chiqishga qulay omil bo'lib xizmat qildi.

1784-yilda Shayxontohur dahasi sobiq hokimining o'g'li Yunusxo'ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi. Toshkent bekligi o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. Yunusxo'janing to'rt maslahatchisi bo'lgan. Toshkent shahar nazorati va soliq yig'ish Boshxo'janing qo'lida bo'lib, savdo-sotiqni qozi va devonbegi nazorat qilishgan. Shariat qonun-qoidalari, narx-navo, o'lchovlar ustidan Rais lavozimidagi amaldor nazorat qilgan. Yunusxo'ja XVIII asr oxirlarida qozoq sultonlari hujumlarini bartaraf etib, Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama, Qorabuloq shaharlarini Toshkentga bo'ysundirgan edi. Toshkent bekligi mavqeining oshib borishi Qo'qon xonlariga yoqmadi.

1799-yilda Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy Toshkenta yurish qildi, ammo Chirchiq bo'yidagi jangda mag'lubiyatga uchradi. 1805-yilda Qo'qon hukmdori Olimbek xon unvonini qabul qiladi va shu paytdan e'tiboran Farg'onada tashkil topgan davlat rasman Qo'qon xonligi deb atala boshlandi. Yunusxo'ja vafotidan keyin Qo'qon xoni Olimxon qo'shinlari yurish qilib, 1809-yilda Toshkentni va unga qarashli Chimkent, Sayram va boshqa hududlarni Qo'qon xonligiga

bo'ysundiradi. Qo'qon xonligi hududiy jihatdan yirik davlatga aylandi. Shunday qilib, asrlar davomida yagona hududda, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalq, mamlakat uch qismga bo'linib ketdi. Uch davlat – Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi.

Qo'qon xonligi tashkil topishi voqeasi ming urug'i oqsoqollari yig'inida mustaqil davlat tuzishga qaror qilinishi bilan boshlandi. Bu davrda Farg'ona vodiysi hududlari Buxoro xonligi tassarufida edi. Buxoro xonligida markaziy hokimyat ichki kurashlar oqibatida zaiflashgandi. Oqibatda, Farg'ona vodiysi Buxoro xonligidan ajralib chiqib Qo'qon xonligi barpo etildi. 1709-yili Farg'ona vodiysida Chodak (Chust shahridan sharqda) xo'jalari qo'zg'alon ko'taradi. Minglar urug'idan bo'lgan yirik zodagon Shoxruxbiy chodak xo'jalari yordamida Farg'ona vodiysida Buxoro xonligidan mustaqil bo'lgan Qo'qon xonligiga asos soldi [2].

Mazkur davlat XIX asr birinchi yarmida hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi eng yirik davlat edi. Qo'qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda uchchala qozoq juzlarini batamom o'ziga bo'ysundirib olgan Rossiya bilan chegaralanar edi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li hududlarni o'z ichiga olar, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo'lar, ular qo'ldan-qo'lga o'tardi. Qo'qon xonligi hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq sersuv daryolari, so'lim vodiylari, serhosil yerlari ko'p edi. Xonlikning markazi Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg'ona vodiysi edi.

Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, taxminan 3 millioncha kishi yashardi. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 000, Toshkent shahrida 60 000 aholi yashagan. Qo'qon xonligi 15 beklik, harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki qarindoshlari hokimlik qilardi. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqarolik boshqaruvining boshlig'i edi.

O'rta Osiyo xonliklaridagi mavjud vaziyatlar mazkur xonliklarning kuchsizlanishiga olib kelgan. Misol uchun, Shahrisabz, Hisor, Badaxshon hokimlari Buxoro amiriga bo'ysunmay qo'yidilar. Faqat amir Shohmurod davrida (1785-1800) hokimiyati bir muncha mustahkamlandi. Amir Nasrullo davrida (1826-1860) amirlik hududiga Amudaryo bo'ylari, janubiy-sharqida Surxondaryogacha bo'lgan yerlar, Marv va Balx kirar edi. 1842-yili Qo'qon xonligi ham qisqa muddatda zabt etildi [3].

O'rta osiyoning Rossiya bilan o'zaro munosabatlari XVI-XVII asrlardayoq yetarlicha mustahkam edi. XVII-XVIII asrlarda Volgabo'yi, G'arbiy Sibir, Rossiya bilan savdo-sotiq birmuncha rivojlangan, O'rta Osiyo savdogarlari Astraxan va Tobolskka kelib turishardi. Qozon tatarlari va boshqirdlar bilan din birligi va til yaqinligi savdoni yengillashtirgan. Rossiyalik musulmon savdogarlari ham O'rta Osiyoga mol keltirib turishardi. Qudratli davlatning hukmdori Pyotr I esa Buxoro va Xiva xonliklarini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar deb hisoblashmay qo'ygandi. U xonliklarga diplomatik tazyiq o'tqazib o'z hukmiga buysindirishga urina boshladi. Bunga ma'lum darajada xonliklardagi ichki siyosiy vaziyat ham sabab bo'lgan edi [5].

Qo'qon xonligining tashqi sitosatida Xitoy muhim o'rin tutgan. Ammo Sin imperiyasi bilan munosabatlari yaxshi bo'lmagan. Bunga asosiy sabab Xitoyning Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinishi bo'lgan.

Qo'qon xoni Erdonabiy (1751-1762-yy) hokimyatda turgan paytda Xitoy Qo'qonga qarshi urush olib boradi. Umuman, Erdonabiy nafaqat tashqi siyosatda, ichki siyosatda ham nisbatan muvaffaqiyatga erishildi. Xususan, Buxoro amirligi va Sin imperiyasi bilan tengma-teng kurash olib borganligi, manbalarda qayd etilgan. Madalixon davrida esa Xitoy bilan munosabatlari yanada keskinlashadi. Bunga Madalixonning Xitoy hukumatiga bo'sunmasligi hamda o'z davlatining chegarasini Sharqiy Turkistonga tomon kengaytirish siyosatini olib borganligi sabab bo'ladi. Xitoydagi moliyaviy qiyinchiklar tufayli Qo'qon xonligiga ochiqda-ochiq kurash olib borolmaydi. Natijada, 1832-yilda Pekinda Xitoy-Qo'qon shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Xitoy Sharqiy Turkistonda Qo'qon savdogarlaini savdo qilishiga qarshilik qilmaydigan bo'ldi. Qo'qon

savdogarlari bojsiz savdo qiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi O'rta osiyolik savdogarlar to'laydigan bojni yig'ib olish Qo'qon xonligiga berildi.

XIX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek xonliklardagi vaziyatga baho berishda shuni unutmaslik lozimki, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida taraqqiyot to'xtab qolmagan. O'zaro urushlar va parokandaliklardan qat'iy nazar, yaratuvchilik faoliyati davom etgan. Xiva xonligida esa sun'y sug'orish borasida oldingi asrlarga nisbatan ko'p samaradorlikka erishilgan [6].

### XULOSA

O'rganilayotgan davrda O'rta Osiyo xonliklarining harbiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon davlatlaridan orqada qolganligini, shuningdek, siyosiy sohada ham o'rta asrchilik boshqaruvning amalda bo'lganligi bir qancha manbalar tasdiqlaydi. O'rta Osiyo xonliklarida markaziy hokimiyatni egalash uchun ichki kurash, o'zaro nizo, janjal va ig'volar doimiy ravishda tus olishi mamlakatni xonavayron qilib, iqtisodiyotni barqaror rivojiga doimiy to'siq bo'lib kelgan. Xonliklarning asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan boshqaruv usuli mamlakat taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lib qolayotgan edi.

Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar etnik nizo urug'-qabila jamoalarini ko'chib yurishga sabab bo'lgan. Bu esa aholini bir butun xalq bo'lib jipshlashtirishga halaqit bergan. Hukumdorlar, saroy amaldorlari eski ishlab chiqarish usulini himoya qilishi oqibatida xonliklarning asosiy boyligi bo'lgan yerga egalik qilish hamda mulkchilikning eski usuli asr davomida o'zgarmadi. O'zbek davlatlarining jahon taraqqiyotidan orqada qolishi o'ta salbiy oqibatlarga olib kelganligini tarix isbotlab berdi. Iqtisodiy va harbiy qoloqlik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik O'rta Osiyo xonliklarini o'z tassarufiga kirtib olishga intilayotgan kuchlarga qo'l keldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murtazoyeva R. O'zbekiston tarixi – Toshkent., 2014. – B 57.
2. Yuldosheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 9-13.
3. Shoymardonov I. O'zbekiston tarixi – Toshkent., 2007. – B 157.
4. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya – Toshkent., 2010. – B 137.
5. Asqarov A. O'zbekiston xalqlar tarixi – Toshkent., 1993. – B 90.
6. Sodiqov H., Jurayev N. O'zbekiston tarixi – Toshkent., 2011. – B 60.
7. Bibirajab Yo'ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'rni. *Miasto Przyszłości*, 41, 424–429.
8. Burxonov, S., Khamidov, O., & Yavmutov, D. (2023). Buxoro viloyatida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo'llari. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
9. Yuldosheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
10. Yuldosheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszłości*, 41, 132–135.
11. Yavmutov, D. S., & Adxamovich, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 34-39. Yavmutov, D. S., & Adxamovich, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 34-39.
12. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИННИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
13. Yuldosheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA



MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.

14. Хаитов, Ж. (2022). Из истории распространения новых сортов сельскохозяйственных культур в Ферганской области за годы независимости. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 621-626.

15. Zayniddinova, T. A. (2020). Specific features of urbanization processes in Uzbekistan (1950–1990). *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(4), 203-208.

16. Тогаева, А. З. (2015). ГОРОДА УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ (1950-1990 гг.). In *The Seventh International Conference on Eurasian scientific development* (pp. 38-42).

17. Jamolova, D. (2022). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA XOTIN-QIZLARNING TUTGAN O'RNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 16(16).

18. Yuldosheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 205-208.